



## 8- VA 9-SINF ONA TILI DARSLIKLARIDA MATN YOZISH TOPSHIRIQLARINING PSIXOLINGVISTIK TAHLILI

D.Xolmurodova

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent  
davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi

Sh.Eshbo'tayeva

Ilmiy rahbar:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15341921>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-Aprel 2025 yil

Ma'qullandi: 28- Aprel 2025 yil

Nashr qilindi: 30-Aprel 2025 yil

### KEYWORDS

Ona tili darsliklari,  
psixolingvistika, matn yozish,  
dekodlash, kodlash, nutqiy reja,  
assotsiatsiya, bahs-munozara,  
uslubiy xususiyat, nutqiy  
kompetensiya, ijodiy fikrlash

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada 8- va 9-sinf ona tili darsliklarida matn yozish topshiriqlarining psixolingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Nutqiy kompetensiyani rivojlantirish nuqtayi nazaridan, o'quvchilarni matn yaratish jarayonida dekodlash, kodlash, xotira va assotsiatsiyalar, nutqiy reja tuzish hamda bahsli munozaralar orqali dalillash kabi bosqichlarda qo'llab-quvvatlashning ahamiyati ko'rsatib beriladi. Maqolada turli uslub va janrlarda (badiiy, rasmiy, ilmiy-ommabop, bahs-munozarali) matn yozish metodikasi hamda ushbu jarayon davomida o'quvchilarda shakllanadigan lingvistik, kommunikativ va ijodiy ko'nikmalar tahlil etiladi. Xulosa sifatida bunday topshiriqlar o'quvchilarning analitik va ijodiy tafakkurini faollashtirib, nutqiy kompetensiyani mustahkamlashi ta'kidlanadi.*

O'zbekiston Respublikasidagi umumta'lim maktablarining 8- va 9-sinflarida ona tili fanidan o'quvchilar grammatik, fonetik, leksik bilimlarini yana-da chuqurlashtirishi bilan bir qatorda, ijodiy va tanqidiy fikrlashni kengroq o'zlashtirishadi. Ona tili darsliklarida ushbu bosqichda matn yozish bo'yicha turli topshiriqlar joriy etilishi o'quvchilarning psixolingvistik rivojlanishiga muhim hissa qo'shadi. Chunki matn yozish jarayonida dekodlash (mavzuni tushunish), kodlash (o'z fikrini ifodalash), xotira va assotsiatsiyalar, nutqiy reja tuzish kabi bosqichlar o'quvchilar ijodkorligini faollashtiradi.

Maqolada mazkur jarayonning lingvistik va metodik asoslari tahlil qilinadi. Shuningdek, 8- va 9-sinf ona tili darsliklarida keltirilgan matn yozish topshiriqlari misolida ularning psixolingvistik ahamiyati ochib beriladi va natijada o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirishdagi roli yoritiladi.

### Asosiy Qism

Matn yaratish jarayonida o'quvchilar avvalo mavzuni anglab (dekodlash) oladilar, so'ngra fikrlarini yozma nutq (kodlash) shaklida ifodalaydilar. Bu bosqichlarda ular xotira hamda assotsiatsiyalarga tayanib, ilgari o'qigan ma'lumotlari yoki shaxsiy tajribasidan misollar keltiradilar. Nutqiy reja tuzish orqali matnning kirish, rivojlanish va xulosa qismlarini bog'lash hamda dalillash va izchillikni ta'minlashga e'tibor beradilar[1:76].

Darsliklarda tasviriy, hikoya-bayon, bahs-munozarali, rasmiy va stilistik tahlil kabi turli janrdagi mashqlarga o'rin beriladi. Badiiy matn yozishda o'quvchilardan epitet, metafora, personifikatsiya kabi badiiy san'at vositalaridan foydalanish so'raladi. Rasmiy uslubda esa ariza, tushuntirish xati yoki e'lon ko'rinishidagi matnlar soddaligi va lo'ndaligi bilan ajralib turadi. Bahs-munozarali matnlar argument keltirish, qarama-qarshi fikrlarni inkor etish yoki tasdiqlash kabi fikr almashish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ushbu topshiriqlar o'quvchilarning so'z boyligini kengaytirish, grammatik savodxonlikni mustahkamlash, mantiqiy izchillik bilan matn tuzish, dalillash, ijodiy tasviriy ifoda va turli uslublarni farqlay olish kabilarini rivojlantiradi. Bunda psixolingvistik bar'yerlarni (mavzuga qiziqish yo'qligi, lug'aviy boylik cheklangani yoki ijodiy blok) yengish uchun bosqichma-bosqich metodik yondashuvlar qo'llaniladi.

8- va 9-sinf darsliklarida badiiy, rasmiy, ilmiy va publitsistik uslublar bo'yicha matnlar keltirilib, o'quvchilar bu uslublar orasidagi leksik-grammatik farqlarni tahlil qilishga yo'naltiriladi. Bahsli yoki dalillashga asoslangan topshiriqlar esa argumentatsion nutqni rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada o'quvchilar turli kommunikativ vaziyatlarda nutq tuzishni amaliy o'rganadilar.

O'zbekiston Respublikasida umumta'lim maktablarida ona tili fanidan tahsil olayotgan 8- va 9-sinf o'quvchilari til bilan bog'liq ko'nikmalarni yanada takomillashtirish bosqichiga kiradilar. Bu bosqichda ular oldingi sinflarda olgan asosiy grammatik, fonetik, leksik bilimlarini chuqurlashtirish bilan birga, badiiy-estetik did, tanqidiy fikrlash, matn ustida mustaqil ishlash va ijodiy yondashuvni rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlarni bajara boshlaydilar. Xususan, matn yaratish, uni tahlil qilish, unga stilistik baho berish, bahs-munozarali matnlar yozish, dalillash va asoslash kabi amaliy topshiriqlar ushbu davrda o'quvchilarning lingvistik, kognitiv va psixologik rivojlanishiga beqiyos hissa qo'shadi. 8- va 9-sinflarda matn yozish topshiriqlari ushbu jarayonlarni faollashtirish, o'quvchilarning psixolingvistik rivojlanishini izchil yo'naltirishga xizmat qiladi.

Psixolingvistika fanida til va tafakkur o'zaro bir butunlikda qaraladi. Inson fikri til orqali namoyon bo'ladi, shu bilan birga, til vositasida fikrning mantiqiy shakllanishi ro'y beradi[2:90]. 8- va 9-sinf o'quvchilari uchun matn yaratish topshiriqlari ularning tafakkur jarayonlaridagi asosiy bosqichlarni izchil mashq qildirishni maqsad qiladi. Masalan, ilmiy matn yoki tasviriy matn yozish jarayonida o'quvchi mavzuga doir bilimlarini faollashtiradi, asosiy ma'lumotlarni tanlaydi, fikrini aniq ifodalashga harakat qiladi. Shunday qilib, til (lingvistik element) va tafakkur (kognitiv jarayon) sintezidan kelib chiqadigan matn paydo bo'ladi.

**Dekodlash** – bu o'quvchining uning oldida turgan matn, mavzu yoki muammo mazmunini tushunish, asosiy g'oyalarni ilg'ab olish bosqichi. 8- va 9-sinfda beriladigan matnlar mazmunan murakkabroq, falsafiy yoki ijtimoiy mavzularga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin. O'quvchi bu bosqichda tushunib olish uchun o'z xotirasidagi ma'lumotlarni "chaqiradi" va mazmunni ongida qayta ishlaydi.

**Kodlash** – o'quvchi mavzuni tushunib bo'lgach, o'z xulosalarini yoki yangicha g'oyalarni yozma yoki og'zaki shaklda ifodalaydi. Ushbu bosqichda leksik boylik, grammatik qoidalarga rioya qilish, uslubiy talablar, shaxsiy nutqiy tajriba muhim ahamiyat kasb etadi. Psixolingvistik nuqtayi nazardan, kodlash jarayonida o'quvchi tanlagan so'z va gaplarni ma'no

jihatidan puxta joylashtirishga intiladi, nutqiy reja asosida matnning kirish, rivojlanish va xulosa qismlarini o'zaro bog'laydi.

Xotira har qanday matn yaratish jarayonining ajralmas qismidir. 8- va 9-sinf o'quvchilari, yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, nisbatan kengaygan lug'aviy zaxira va hayotiy tajriba to'plagan bo'ladilar. Ular ilgari o'qigan badiiy adabiyotlar, ilmiy-ommabop maqolalar, ijtimoiy tarmoq xabarlar va shu kabi manbalar bilan tanishdilar. Shuning uchun matn yozish jarayonida ushbu manbalarga assotsiativ ravishda murojaat qilish, fikrlarini boyitish, dalillar keltirish uchun misollar topish, analogiyalar keltirishlari ehtimoli yuqori.

Assotsiatsiyalar orqali ijodiy fikrlash ham faollashadi. Masalan, "O'zbekistonda kuz" mavzusida insho yozish topshirig'ini olaylik. O'quvchi kuz faslini tasvirlashda nafaqat shaxsiy kuzatuvlari, balki o'qigan she'rlaridagi kuz manzaralari, boshqa adabiy asarlardagi tavsiflarni xotirasidan topib, o'z matniga uyg'unlashtirishi mumkin.

**Nutqiy reja tuzish** – mavzuga ko'ra matn tarkibini kirish, asosiy qism va xulosa shaklida bo'lish yoki xronologik, mantiqiy tartiblar asosida tuzishni anglatadi[3:124]. 8- va 9-sinfda ushbu reja tuzishni o'rganish jiddiyroq tus oladi: o'quvchilar ko'pincha muhokama, munozara, dalillash, tasviriy yoki bahsli matn yozish uchun qulay bo'lgan kompozitsiyani tanlashga o'rganadi.

**Psixolingvistik bar'yerlar** esa o'quvchilarning matn yaratishdagi muammolariga ishora qiladi: lug'aviy boylik yetarli bo'lmasligi, ijodiy blok paydo bo'lishi, mavzuga qiziqish yetarli emasligi yoki psixologik bosim tufayli fikrlarni izchil ifodalay olmaslik kabilar. Shu bois, ona tili darsliklarida ushbu bar'yerlarni yengishga yordam beruvchi metodik yondashuvlar kiritiladi: bosqichma-bosqich topshiriqlar, reja tuzish, ko'makchi savollar, ilgari yozilgan matnlarga misollar, hamkorlikdagi muhokama va boshqalar.

8- va 9-sinf ona tili darsliklarida matn ustida ishlash bo'yicha ilgari suriladigan umumiy maqsadlar, avvalo, nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladi: o'quvchilar so'z boyligini kengaytirish, gap tuzilishini takomillashtirish, turli janrlarda yozishni o'rganish bilan birga, analitik va ijodiy tafakkurni shakllantirish jarayonlarini ham boshdan kechirishadi. Ular matnni chuqur tahlil qilish, mavzuga ijodiy yondashish, mustaqil g'oyalar ilgari surish va xulosa qilish malakalarini mustahkamlaydi. Shuningdek, 8- va 9-sinfda tahliliy yondashuv va dalillash ko'nikmasi yanada rivojlanadi: o'quvchilar bahsli insholar, muhokama matnlari kabi argumentatsion uslubdagi asarlar bilan ishlashni o'rganadilar. Bularning barchasi esa stilistik sezgini rivojlantirishni ta'minlab, o'quvchilarga badiiy, ilmiy, rasmiy va publitsistik uslublarning asosiy belgilarini anglash va ulardan o'z nutqida mos ravishda foydalanish imkonini beradi.

Mazkur jadvalda 8- va 9-sinf ona tili darsliklarida matn yozish bilan bog'liq turli shakldagi topshiriqlar, ularning mazmuni hamda ushbu topshiriqlar natijasida o'quvchilarda rivojlanadigan nutqiy kompetensiyalar umumlashtirilib keltirilgan. Har bir sinf uchun misol tariqasida berilgan mashqlar– tasviriy, bahs-munozarali, hikoya-bayon, rasmiy va stilistik tahlil singari topshiriqlar orqali o'quvchining til boyligi, fikrlash hamda ijodiy yondashuvi bosqichma-bosqich mustahkamlanadi.

Quyida 8- va 9-sinf ona tili darsliklarida matn yozish bilan bog'liq berilgan topshiriqlar va ularning psixolingvistik tahlili bosqichlari (dekodlash, kodlash, xotira va assotsiatsiyalar, nutqiy reja tuzish hamda bar'yerlar) 1-jadvalga jamlandi. Shuningdek, har bir topshiriq

yakunida o'quvchilarda shakllanadigan natija – ya'ni, ularning nutqiy va ijodiy kompetensiyasidagi rivojlanish holati ham ko'rsatilgan.

1-jadval.

8- va 9-sinf darsliklarida matn yozish bilan bog'liq topshiriqlar va ularning nutqiy kompetensiyaga ta'siri.

Sinf, Mashq raqami	Topshiriq shakli	Topshiriqning mazmuni (misol)	Nutqiy kompetensiyaga ta'siri
8-sinf 16	Tasviriy matn yozish	<b>“O'zbekistonda kuz”</b> mavzusida 2-3 abzasdan iborat tasviriy matn tuzing.	– Badiiy ifoda, epitet, metafora kabi iboralardan foydalanish. – Matn tuzilishini izchil rejalash. – Obrazli ifodalar orqali manzarani jonli tasvirlash.
8-sinf 164	Bahs-munozarali matn	<b>“Donishmand ustoz”</b> matniga shaxsiy munosabat bildirib 2-3 abzasli munozarali matn yozing, dalillar keltiring va xulosa chiqaring.	– Turli nuqtayi nazarlarni tahlil qilish, o'z fikrini himoya qilish. – Mantiqiy bog'lovchilar, izchil ifoda. – Dalillar ketma-ketligini to'g'ri tartibda joylashtirish.
8-sinf 209	Rasmiy uslubdagi matn	<b>“Guruhingiz o'tkazayotgan adabiy kechaga taklifnoma”</b> matni yozing.	– Sodda, aniq, lo'nda ifodalar. – Ish qog'ozlari shakllariga rioya qilish. – Zarur ma'lumotlarni tartibli ravishda bayon qilish.
9-sinf 21	Tasviriy matn yozish	<b>“O'zbekistonda oltin kuz”</b> rasm asosida O'zbekistonning manzarasini tasvirlaydigan matn yozing.	– Badiiy-tasviriy birliklar, ijodiy uslublardan foydalanish. – Real yoki xayoliy ofat manzarasini boy tasvirlash. – Tabiat hodisasining ketma-ket ifodasi.
9-sinf 212	Bahs-munozarali matn	<b>“Insoniylik mehrdan boshlanadi”</b> mavzusida muhokama mazmunida 3-4 abzasli bahs-munozarali matn yozing.	– Ilmiy va ijtimoiy dalillarni keltirish, qarama-qarshi fikrlarni solishtirish. – Berilgan dalillarni xulosaga bog'lash. – Munozarali matn uslubini saqlash.
9-sinf 255	Stilistik tahlil	Berilgan parchaning <b>badiiy yoki publitsistik</b> uslubda yozilganini aniqlash, undagi <b>badiiy vositalar, ohang va emotsional ta'sirni</b> izohlang.	– Uslublarni farqlay olish. – Badiiy-tasviriy vositalarni ajratish va nomlash. – Parchaning asosiy g'oyasiga e'tibor qaratish, tahliliy izoh berish.

2-jadval.

8- va 9-sinf ona tili darsliklarida matn yozish bo'yicha topshiriqlar va ularning psixolingvistik tahlili.

Sinf / Mavzu	Topshiriq mazmuni	Psixolingvistik tahlil (1. Dekodlash, 2. Kodlash, 3. Xotira va assotsiatsiya, 4. Nutqiy reja tuzish, 5. Bar'yerlar)	Natija
8-sinf "O'zbekistonda kuz" mavzusida matn yozish	<ul style="list-style-type: none"> <li>- 8-10 ta gapdan iborat tasviriy matn yozish;</li> <li>- Ob-havo, ranglar, meva-sabzavot yetilishi, kuz manzaralari;</li> <li>- Kirish, asosiy qism (kuz manzarasi), xulosa.</li> </ul>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. O'quvchi kuz faslini tasavvur qilishi yoki avval eshitgan, o'qigan manzaralarni yodga oladi.</li> <li>2. Tasavvurni yozma shaklga keltirish, tasviriy ifodalarni tanlash, gaplarni mantiqiy tartibga joylashtirish.</li> <li>3. Kuz haqidagi she'rlar, maqollar, real kuzatuvlar.</li> <li>4. Kirish (umumiy tasvir), asosiy qism (tabiat, ob-havo, kayfiyat), xulosa.</li> <li>5. Til boyligining cheklanishi, mavzuga qiziqish yetishmasligi.</li> </ol>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Tasviriy nutq ko'nikmasi rivojlanadi.</li> <li>- Fikrni aniq ifodalash va mavsumiy leksikani qo'llash mustahkamlanadi.</li> <li>- Ijodiy fikrlash faollashadi.</li> </ul>
8-sinf "O'zbek me'morchiligi an'analari" mavzusida ijodiy matn	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Milliy madaniyat, urf-odatlar, me'morchilik an'analari haqida ijodiy matn;</li> <li>- Registon, Bibixonim, Ichan-Qal'a kabi obidalar misolida bezak, gumbaz, ravoq, peshtoq atamalarini keltirish;</li> <li>- Kirish, asosiy qism (misollar), xulosa (saqlash zaruriyati).</li> </ul>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Me'morchilik obidalari haqidagi eski bilimlarini xotiraga keltirish.</li> <li>2. Ushbu ma'lumotlarni kirish-asosiy qism-xulosa tartibida ifodalash, aniq terminlar tanlash.</li> <li>3. Shaxsiy sayohat taassurotlari, tarixiy faktlar.</li> <li>4. Kirish (O'zbekiston hududida boy me'morchilik an'analari), asosiy qism (konkret misollar, gumbaz, koshinkori), xulosa (tarixiy merosni saqlash).</li> <li>5. Terminologiyani bilmaslik yoki mavzuning mavhum bo'lib tuyilishi.</li> </ol>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Ilmiy-ommabop uslub elementlarini o'zlashtiradi.</li> <li>- Til boyligi (koshinkori, peshtoq, gumbaz) oshadi.</li> <li>- Matn mantiqiy rivoj qila olish ko'nikmasi shakllanadi.</li> </ul>

<p>9-sinf "Ish qog'ozlari va rasmiy uslub" bo'limi</p>	<p>– Rasmiy uslubda matn yozish: tushuntirish xati, ariza, e'lon, xabar; – Qisqa, sodda va lo'nda ifodalar; – Belgilangan andozaga muvofiq tuzilish (kimga, kimdan, mavzu, sana, imzo).</p>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Rasmiy uslub, uning til xususiyatlari haqida nazariy ma'lumotlarni eslash.</li> <li>2. Rasmiy matn janriga xos ifoda uslublaridan foydalangan holda yozish (taklif, ariza, e'lon).</li> <li>3. Ilgari ko'rgan ish qog'ozlari, devoriy e'lonlar.</li> <li>4. Kirish – kimga murojaat, asosiy qism – maqsad, xulosa – imzo, sana.</li> <li>5. Rasmiy tilda keraksiz emotsionallik, badiiy ifodaga o'rganib qolish.</li> </ol>	<p>– Rasmiy uslub xususiyatlarini o'zlashtirish. – Ish qog'ozlari orqali amaliy yozish malakasini egallash. – Turli janrlarni farqlay olish va tegishli ifoda uslubini qo'llash.</p>
<p>9-sinf "Dalillash va xulosa chiqarish" bo'limi</p>	<p>– Bahsli va munozarali mavzularda (masalan, "Elektron kitobmi yoki bosma kitob?") dalillar keltirish; – Har bir dalilga misol yoki raqamlar, qarama-qarshi fikrlarni tahlil qilish; – Umumiy xulosa chiqarish.</p>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mavzu bo'yicha umumiy ma'lumotlar, tezis va antitezislarni xotirada tiklash.</li> <li>2. Dalillarni tartibga solish, raqamlar yoki faktlar keltirish, nihoyat xulosa qilish.</li> <li>3. Shaxsiy tajriba yoki boshqa fanlardan olgan bilimlar, ijtimoiy dalillar.</li> <li>4. Kirish (mavzuni tanishtirish), asosiy qism (dalillar, qarshi dalillar), xulosa (yakuniy fikr).</li> <li>5. Dalil tanlashda tajriba kamligi, fikrlarni chalkashtirish.</li> </ol>	<p>– Bahs-munozara ko'nikmasi rivojlanadi. – Mantiqiy izchillik va dalillash malakasini shakllantiradi. – Nutqiy kompetensiyani ijtimoiy mavzular bilan boyishiga xizmat qiladi.</p>

Yuqoridagi 2-jadvalda 8- va 9-sinf ona tili darsliklarida matn ustida ishlashga doir topshiriqlar hamda ularni psixolingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilish bosqichlari ko'rsatib berildi. Ushbu topshiriqlar o'quvchilarda tasviriy, ilmiy-ommabop, rasmiy, bahs-munozarali matnlar yozish imkoniyatini kengaytirib, turli uslub va janrlarda ijodiy fikr yuritishni shakllantiradi. Natijada o'quvchilar nutqiy kompetensiyaning turli tarkibiy qismlarini – leksik boylik, mantiqiy tafakkur, dalillash, rasmiy uslubni o'zlashtirish, badiiy ifoda vositalaridan foydalanish – o'zlashtirib boradilar. Bu esa sinfdan-sinfga o'tkaziladigan izchil mashqlar yordamida ijodiy va tanqidiy fikrlashni, shuningdek, amaliy yozish malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Nutqiy kompetensiya – bu shaxsning turli kommunikativ vaziyatlarda og'zaki va yozma nutqni to'g'ri, ravon va maqsadga muvofiq tarzda shakllantira olish qobiliyatidir. U ikki asosiy qatlamni o'z ichiga oladi: lingvistik (til qoidalarini bilish, lug'at boyligi) va kommunikativ (nutq maqsadidan kelib chiqib janr va uslubni moslashtirish) jihatlar[4:45]. Aynan shu sababli 8- va 9-sinfda matn yaratish bilan bog'liq topshiriqlar berilganda, o'quvchilar til qoidalarini amalda qo'llash bilan birga, tanlangan mavzu, janr yoki uslubga xos ifoda vositalaridan foydalanishni ham o'rganadilar.

Nutqiy kompetensiyaning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

1. Sinf-dan-sinfga o'tgani sari o'quvchilar turli mavzular doirasida yangi so'zlar, sinonim va antonimlar, atama va iboralarni o'zlashtiradilar.
2. Matn yozish jarayonida imlo qoidalariga rioya qilish, so'z shakllari va gap qurilishining to'g'riligiga e'tibor berish, lingvistik savodxonlikni mustahkamlaydi.
3. O'quvchilar har bir mavzu, janr yoki kommunikativ vaziyatga mos lingvistik vositalarni tanlashni o'rganadilar. Bunda badiiy, ilmiy, rasmiy yoki publitsistik uslublarning o'ziga xos xususiyatlari inobatga olinadi.
4. Kirish, rivojlanish va xulosa qismidan iborat bo'lgan matn tarkibini tuzish, asosiy g'oyani saqlab qolish hamda dalillarni ketma-ket joylashtirish ko'nikmasini shakllantiradi.
5. Ijodiy ifoda: Obrazli tasvir, badiiy san'at vositalari (metafora, epitet, personifikatsiya va boshqalar) orqali o'quvchi o'z fikrlarini yanada jozibador shaklda bayon qilishni o'rganadi.
6. Bahs-munozarali matnlarda yoki ilmiy-ommabop uslubda dalil keltirish, qarama-qarshi fikrlarni tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmasi rivojlanadi.

Mazkur tarkibiy qismlarni bir butun holda o'zlashtirish orqali o'quvchilar 8- va 9-sinflarda matn bilan ishlash topshiriqlarini samarali bajaradilar. Shunday topshiriqlar jarayonida ular atroflicha o'ylab ko'rish, mavzu doirasidagi til birliklarini tanlash, mantiqiy rivojlanish va stilistik uyg'unlikni ta'minlash, o'z nuqtayi nazarini aniq ifodalash va dalillash kabi qator ko'nikmalarni egallaydilar. Bu esa ularda to'laqonli nutqiy kompetensiyaning shakllanishiga yordam beradi.

Matnning stilistik xususiyatlari - bu uslub, ohang, leksik birliklarni tanlash, emotsionallik darajasi, badiiy yoki rasmiy ifoda, publitsistik yoki ilmiy yondashuv kabi jihatlarni o'z ichiga olgan majmuidir[5:88]. 8- va 9-sinf darsliklarida o'quvchilar turli uslubiy ko'nikmalarni egallashlari uchun badiiy, ilmiy, rasmiy va publitsistik uslubdagi matnlar bilan tanishtiriladi.

1. Badiiy uslub asarlarida (hikoya, she'r, dramatik parchalar) emotsionallik va obrazlilik darajasi yuqori bo'lib, o'quvchiga kuchli hissiy ta'sir o'tkazish maqsadida badiiy san'at vositalari (metafora, epitet va boshqalar) keng qo'llaniladi.
2. Ilmiy uslub esa ilmiy maqolalar, tadqiqot natijalari, ilmiy-ommabop matnlarga xos bo'lib, aniq terminlar, dalillar va rasmiy ohang ustunlik qiladi. Bunda maqsad - ilmiy faktlarni asosli bayon qilish va xulosaga kelishdir.
3. Rasmiy uslub hujjatlar, ariza, tushuntirish xati yoki tilxatlarda qo'llanib, qisqa, lo'nda ifoda va emotsiyadan xoli bo'lishi bilan ajralib turadi. Mazmun soddaligi va ortiqcha badiiylilikning yo'qligi rasmiy matnning asosiy belgisidir.
4. Publitsistik uslub ommaviy axborot vositalari, maqolalar, reportajlar, ijtimoiy tarmoq chiqishlari uchun xos bo'lib, xabardor qilish bilan birga, o'quvchida muayyan hissiy kechinma uyg'otish, ishontirish, harakatga undashga qaratilgan.

Shunday qilib, 8- va 9-sinf darsliklarida o'quvchilarga mazkur to'rtta uslubning xususiyatlarini namoyish etadigan matnlar beriladiki, bu ular uchun uslubiy sezgi, til boyligi va nutqiy mahoratni oshirishga xizmat qiladi.

Darsliklarda o'quvchilarga turli uslubdagi matnlar berilib, ularning til birliklari, ifoda usullari, badiiy san'at vositalari bo'yicha tahlil qilish so'raladi. Bu jarayon uslubiy sezgini rivojlantiradi, o'quvchi o'z matnini ham o'sha mezonlarda baholashga o'rganadi.

Matn yozish jarayonida o'quvchi ijodiy bloklarni yengishni o'rganadi, fikrlarini boyitish uchun xotira va assotsiatsiyalarga tayanadi, mustaqil qaror chiqarish jarayonidan zavq oladi. Bu o'z-o'zini rivojlantirish, ishonch hissi bilan bog'liq. 9-sinfga kelib, o'quvchi ancha pishgan, o'z fikrini qat'iy himoya qila oladigan shaxs sifatida shakllanishga yo'naltiriladi. 8- va 9-sinfda dalillash va bahs-munozara matnlari ustida ishlash o'quvchining ijtimoiy-psixologik ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Chunki real hayotda ham do'stlari, o'qituvchilari, oilasi bilan bahslashish yoki muhokama qilinadigan masalalarda fikrini asoslab bera olish juda muhim. Mazkur bosqichda o'quvchilar o'z matnlarini o'zlari qayta ko'rib chiqish, kerak bo'lsa, tahrir qilish, takomillashtirish malakalarini ham puxta o'rganadilar. Bu "o'z-o'zini baholash" va "o'z-o'zini tahlil qilish" kabi yuqori darajadagi kognitiv qobiliyatlarni shakllantiradi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, 8- va 9-sinf ona tili darsliklarida matn yozish bilan bog'liq topshiriqlar psixolingvistik nuqtayi nazardan o'quvchilarni fikrni shakllantirish, xotira va assotsiatsiyalardan foydalanish, nutqiy reja tuzish kabi jarayonlarda faol ishtirok etishga undaydi. Tasviriy, hikoya-bayon, bahs-munozarali va rasmiy uslubdagi matnlar bilan ishlash orqali ular lingvistik bilimlarini boyitadilar, ijodiy va tanqidiy tafakkurlarini kuchaytiradilar, stilistik sezgini shakllantiradilar. Bunday topshiriqlar izchil berib borilsa, o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasi yuksalib, mustaqil matn yozish malakasi mustahkamlanadi va kelajakdagi ijtimoiy-madaniy hayot uchun zarur bo'lgan muloqot ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Luriya, A. R. (1979). *Language and Cognition*. Cambridge University Press.
2. Рамзаева Т. Г. *Психолингвистические аспекты восприятия текстов у школьников*. — М.: Изд-во пед. наук, 2006. — 200 с.
3. Mustafoyev, M. T. (2019). *Til va nutq metodikasi*. Toshkent: O'qituvchi.
4. G'ofurova, A. (2021). *Matn tahlili va lingvistik metodlar*. Toshkent: Fan va ta'lim.
5. Kunin, H. (2015). *Text Cohesion and Coherence in Linguistics*. London: Routledge.